

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiyotining tarixiy dinamikasi

Annotatsiya:

Maqola O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mustaqillikdan keyingi tarixiy rivojlanish dinamikasini bosqichma-bosqich tahlil qiladi. Sovet davridagi markazlashgan iqtisodiy tizimdan boshlab, 1991–2000 yillardagi o‘tish davri qiyinchiliklari, 2000–2016 yillardagi islohotlar va 2017-yildan hozirgacha bo‘lgan liberalizatsiya bosqichlari ko‘rib chiqiladi. Asosiy e‘tibor huquqiy asoslar, soliq imtiyozlari, mikromoliya, raqamlashtirish va xalqaro hamkorlikka qaratilgan. Maqolada kichik va o‘rta biznesning YaIMdagi ulushi, ish o‘rinlari yaratishdagi roli va eksportdagi hissasi raqamli ko‘rsatkichlar bilan asoslanadi. Muallif to‘siqlar, infratuzilma zaifligi, malaka yetishmasligi va kelajak istiqbollarini muhokama qilib, ta‘lim va ekologik tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Tadqiqot O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy o‘shida kichik biznesning hal qiluvchi rolini ta’kidlaydi.

Kirish:

Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanish dastaklaridan hisoblanadi. Bu soha mustaqillik davrining ilk yillarida nafaqat iqtisodiy rivojlanishning yuragi bo‘lib keldi, balki aholining bandligini ta‘minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va innovatsiyalarni joriy

etishda ham katta rol o'ynadi. O'zbekiston iqtisodiyotining deyarli 50% dan yuqoriroq qismini kichik va o'rta biznes tashkil qiladi va eksportning ham katta ulushiga egalik qiladi. Kichik biznes taraqqiyotining tarixiy dinamikasini bosqichma-bosqich ushbu maqola orqali ko'rib chiqiladi, asosiy islohotlar va kelajak istiqbollari o'z navbatida tahlil qilinib, muhokama etiladi.

Adabiyotlar sharxi:

Mashxur iqtisodchi Adam Smit biznes va tadbirkorlik shaxsiy foyda olish uchun tavakkalchilik tijoratg'oyasini amalga ooshiruvchi mulkdor deb ta'riflaydi. Bu fikirni biz ham yoqlab chishimiz mumkun. O'z navbatida yana bir mashhur amerikalik iqtisodchi Y. Shumpeter (1883- 1950) o'zining «Iqtisodiy kompaniyasina nazariyasi» kitobida, tadbirkorni novator (yangilik bunyod tomonidan odam) deb ta'riflagan. Hozirgi kunning tendensiyalariga bu fikr juda ham mos kelishini ko'rishimiz mumkun.


Asosiy qism:

Tariximizga nazar tashlasak kichik biznesning ildizlari uzoq davrlar mobaynida shakillanib kelgan, ammo O'zbekistonning zamonaviy tarixidagi kichik biznesning ildizlari Sovet Ittifoqi davriga borib taqaladi. Mamlakatimiz 1924 yili O'zbekiston SSR bo'lib qayta tashkil qilngandan keyin iqtisodiyot to'liq markazlashdi, xususiy tadbirkorlikga batamom nuqta qo'yildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Dehqonchilik va hunarmandchilikga kollektivlashtirish siyosati natijasida butunlay chek qilindi. Tariximizning eng qora kunlari 1930 yillardan boshlab "Quloq" qilish siyosati natijasida ko'plab kishilarning yostig'i quridi, hunarmand va dehqonlar kasod bo'ldilar. Buning asosiy sababi xususiy savdo va ishlab chiqarish esa jinoyat sifatida qaralishi bo'ldi. Natijada insonlarning ongini hususiy mulkga egalik qilishga bo'lgan hohish istaklar ham yo'qqa chiqdi. Bu bosqich O'zbekiston respublikasining Mustaqilligi davrigacha davom etdi. Respublikamizning birinchi Prezidenti tomonidan 2012 yilning 14-sentabrida O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati"

mavzusidagi konferensiyada O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishi yo'lida kichik biznes va hususiy tadbirkorlikning ahamiyati alohida ta'kidlab o'tildi va bu sohani rivojlantirish uchun muhim bo'lgan ko'plab g'oyalarni taklif etdilar. Yangi tajribalar orqali bu sohani rivojlantirish asosiy omil sifatida ko'rib chiqildi. Ushbu konferensiyada birinchi prezidentimiz ko'plab moliyaviy institutlar masalan , BMT, Jahon banki,Osiyo taraqqiyot banki,Islom taraqqiyot banki va boshqa shu kabi tashkilotlardan tashrif buyurgan yetakchi expertlar,biznesmelarga bu ilgo'or surilgan g'oyalarni taqdim qilib tanishtirdi. Bunga qo'shimcha qilib tadbirkorlikni rivojlantirish va unga qulay muhitni yaratishga qaratilgan islohotlar natijasida 2016 yil davomida 31766 ta yangi kichik tadbirkorlik sub`ektlarini (dehqon va fermer xo`jaliklaridan tashqari) tashkil etish imkonini berdi. Natijada 2017 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko`rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub`ektlarining soni 218170 tani tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 11066 taga ko`paydi.

Keying yillarda bozor iqtisodiyotining asosiy omili bo'lgan hususiy mulkchilikga katta etibor berildi hamda, kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab islohotlar olib borildi. Buning natijasida so'nggi o'n yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes ulushi 31,1 foizdan 52,5 foizga o'sdi, ushbu sohada bandlik darajasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholi umumiy sonining 49,7 foizidan 74,5 foizigacha oshdi. Aholi daromadlarining 47 foizdan ziyodi tadbirkorlik faoliyatidan tushgan daromadlar hissasiga to'g'ri keladi. Yana qo'shimcha ravishda "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yilli" da davlat dasturiga muvofiq tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay sharoitlar yaratildi.

Shuningdek, 2023- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIM dagi ulushi quyidagi chizmada akas ettirilgan(1-rasm).



1-rasm. Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIM dagi ulushi, % da

Yuqoridagi diagrammada ko'rishimiz mumkinki Kichik biznes va tadbirkorlikning O'zbekiston iqtisodiyotini eng yirik salmog'ga ega sohasi ekanini ko'rishimiz mumkun.

Xulosa:

Bu keltirilgan ma'lumotlar va fikrlar shuni ko'rsatadiki kichik biznes va hususiy tadbirkorlik xar qaysi mamlakatning rivojlantiruvchi yuragi hisoblanar ekan hamda bu sohadagi islohotlar nafaqat mamlakat iqtisodiyoti balik aholi turmush tarzini ham yaxshilanishiga olib keladi. Bu sohaning O'zbekiston Respublikasi miqiyosida tarixan shakillanishi va bugungi kundagi natijalarni zab etishining o'zi bir yuksak marra desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/acts/-1856013>
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti. Kichik biznes va tadbirkorlik bo'yicha rasmiy statistika. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>
3. Umurzakov, U. P., & Toshboyev, A. J. (yil ko'rsatilmagan). Kichik biznes va tadbirkorlik. Toshkent.

4.O‘zstandart agentligi rasmiy sayti. Yangiliklar.

<https://www.standart.uz/ru/news/view?id=364>

5.Shumpeter, Y. A. (1982). Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi. Moskva: Progress.

6.Smit, A. (1962). Issledovanie o prirode i prichinakh bogatstva narodov. Moskva: Sotsekgiz, 332–334-betlar.